

O'zbekiston Respublikasi
Favqulodda vaziyatlar vazirligi
Fuqaro muhofazasi instituti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2009 yil 24 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligining moddiy-texnik bazasini kelajakda mustaxkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 261-sonli

Qaroriga binoan Fuqaro muhofazasi instituti Toshkent viloyati, Qibray tumani, Geofizika qo'rg'oni, Anaybuloq ko'chasi, 3 uyga ko'chirildi.



Institutda Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT)ning yuqori boshqaruv va tashkiliy bo'g'ini mutaxassislarni, shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilarni, FVV tarkibiy va hududiy bo'linmalarining qutqaruv xizmatlari hamda boshqa vazirlik va idoralarning qutqaruv tuzilmalari qutqatuvchilarni maqsadli tayorlash, shuningdek Fuqaro muhofazasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun bosh o'quv – uslibiy va ilmiy – pedagogik markaz sifatida tashkil etilgan.

Institut O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziriga bo'ysinadi va o'z faoliyatini uning rahbarligi ostida, Markaziy apparatning boshqarmalari va xizmatlari, FVVning hududiy va tarkibiy tuzilmalari, O'zbekiston Respublikasi ilmiy- tadqiqot va o'quv muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Institut FVDTning yuqori boshqaruv va tashkili bo'g'ini mutaxassislarni, O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri - Fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan Jamlash rejasiga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar, idoralar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislarning, FVVning shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilarni, FVV tarkibiy va hududiy tuzilmalari qutqaruv xizmatlarining qutqaruvchilarni, boshqa vazirlik va idoralarning qutqaruv tuzilmalari qutqaruvchilarini tayorlash, qayta tayorlash va malakasini oshirishni amalga oshiradi.

Institut faoliyati davrida fuqaro muhofazasi yo'nalishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT)ning 21388 nafar oliy boshqaruv va tashkiliy zveno mutaxassislari hamda 6090 nafar Toshkent shahar fuqaro muhofazasi xodimlari, qutqaruvchilar va harbiy xizmatchilar maqsadli tayyorgarlikdan o'tkazildi.

Fuqaro muhofazasi institutida tinglovchilarni o'qitish davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, vazirliklar, idoralar, muassasalar va tashkilotlarning buyurtmalari asosida ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri – Fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan Jamlash rejasiga muvofiq olib boriladi.

Institutning asosiy bo'linmalari hisoblanadi. Ular o'quv uslubiy – bo'lim bilan birgalikda o'quv rejlari loyhalrini, uslubiy ta'minot, o'quv jarayonini tashkil etish va rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqadi. Tinglovchilar bilan mashg'uatlar tashkil etadi, kafedralar va kurslar o'qituvchilarning o'quv yuklamasini taqsimlaydi. O'quv jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy – uslubiy anjumanlar, seminarlar, yig'inlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etadi. Boshqa oily o'quv yurtlari va ilmiy – tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik qiladi.

Ilmiy amaliy seminar

Vazirlikning shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilarini tayyorlash va malakasini oshirish kurslari

Kurslarning asosiy vazifasi harbiy xizmatchilarda yuqori ma'naviy- ruhiy sifatlarni tarbiyalash, o'quv jaryayoni va kundalik xizmat-jangovar faoliyat o'rtasidagi uzilmas aloqani ta'minlash, harbiy xizmatchilarni umumqo'shin tayyorgarligi asoslari buyicha tayyorlash, maxsus texnika, asbob- uskuna, aslaha-anjomlarning hamda qidiruv va avariya-qutqaruv bo'linmalari kiyim-boshlarining yangi namunalarini o'rganish;

tinglovchilarda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning ıozaga kelish extimolligi monitoringi va prognoz qilish, ularni modellashtirish, potensial xavfli ishlab chiqarish, ob'ektlar mavjudligi va tabiiy ofatlar taxdidini riyonlashtirish, iktisodiyot ob'ektlari va hududlardagi havf darajasining me'yoriy kursatkichlarini ishlab chiqish va tatbiq etishni tashkillashtirish bo'yicha malakani shakllantirish hisoblanadi.